



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 356 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganish.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech..... 184 Turumbetova Aygul Yusupbaevna	184
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi 189 Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	189
	Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish 191 Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	191
	Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi..... 195 Ermatova Robiya Bekjonali qizi	195
	The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education 199 Ismailova Shaira Ferdausovna	199
	Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners 204 Maqsudova Gulnoz Olimovna	204
	Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms 208 Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	208
	Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching 212 Sharipova Muhabbat Erkinovna	212
	Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili..... 216 Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	216
	Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv 222 Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	222
	O'qituvchilarning qadriyatlarini va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili 227 Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	227
	Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida 229 Safarova Madina Azamat qizi	229
	Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности..... 233 Аскарова Гулрух Оринбасаровна	233
	Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века 239 Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Ғолиб	239
	Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана 242 Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	242
	Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining asosiy shakllari 245 Abdukarimov Nurmaxan Amirxanovich	245
	Orol bobo obrazi orqali inson va tabiat birligining talqini 249 Hayotova Diyora Hamid qizi	249
	Yosh taekvondochilarda (10–12 yoshli) kuch, tezkorlik va ephillik sifatlarini takomillashtirish metodikasi .. 254 Iminova Z. B., Nazarova M. A.	254
	Oliy ta'lim muassasasi kafedra mudirlarida liderlik xususiyatini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar 258 Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	258
	Mediafalsafaning oliy ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari va pedagogik funksiyalari 265 Mirabdullayev Izzatillo Isroiljon o'g'li	265
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti kun tartibini to'g'ri tashkil etishda tarbiyachining roli..... 271 Muminova Gulasal Baxodirovna	271
	Soft Skills yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish 275 Quvonova Nodirabegim Shavkat qizi	275
	Tasviriy faoliyat jarayonida eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning kognitiv jarayonlarini rivojlantirish .. 280 Sadirova Kamola Giyozovna	280



Inklyuziv ta'lim sharoitida maxsus pedagogik metodlar orqali o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash.....	284
<i>Suyunova Kamola Jamshed qizi, Suvonova Kamola Rayimkulovna</i>	
Web-dizayn texnologiyalari asosida bo'lajak informatika va axborot texnologiyalari o'qituvchilarining raqamli kompetentligini shakllantirish metodikasi	287
<i>Ulmasbek Abdubanapovich Yuldashev, Prof. Dr. Ayhan Istanbulu</i>	
O'smirlar axloqiy rivojlanishining psixologik determinantlari va ularni takomillashtirish mexanizmlari	293
<i>Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</i>	
Oliy ta'limda o'zbek tili fanini o'qitish: muammo va yechimlar	297
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Folklor motivlarining bolalar xarakteri shakllanishidagi o'rni.....	300
<i>Safarova Nigora Oxunjonovna, Sayfilloyeva Jasmina Jahongirovna</i>	
Kreativ pedagogga qo'yiladigan talablar va uni shakllantirish bosqichlari.....	304
<i>Abdialimova Maxfuza Safarboy qizi</i>	
Biologiya darslarida STEM va biotexnologiya integratsiyasining nazariy poydevori	307
<i>Abdusamatov Abduqodir Norqul o'g'li</i>	
The Effectiveness of Project-Based Learning in Developing 21 st -Century Skills Among EFL Learners	314
<i>Axmatova Munisa Orif qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati asosida ijtimoiylashuvi.....	320
<i>P. M. Pulatova, El'muradova Madina Yangiboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetensiyalarini xalq og'zaki ijodi asosidagi didaktik o'yinlar orqali rivojlantirishning lingvopsixologik va tarbiyaviy mexanizmlari.....	326
<i>Muqimova Gullola Qobil qizi, Sultonov Humoyun Ulug'murodovich</i>	
Tillarni o'qitish jarayonini modellashtirishning metodologik asoslari.....	330
<i>Nurkeldi Jarasbayev</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining informatika ta'limidagi o'rni va ahamiyati	334
<i>Abdullayev Abubakir Narzullayevich, Xurozboyeva Sevinch Abror qizi</i>	
Научно-методологические основы организации психопрофилактической и психокоррекционной работы в практической психологии	337
<i>Ядгарова Озода Ибрагимовна</i>	
Raqamli ta'lim muhitida birlamchi manbalar bilan ishlashning sun'iy intellektga asoslangan pedagogik-metodik mexanizmlari	342
<i>Yursinboyev Jaxongir Mexrojiddin o'g'li</i>	
Zamonaviy biologiyada umumiy genetikaning o'rni va istiqbollari	348
<i>Ko'bayev Jurabek Eshmamatovich</i>	
Разработка системы мониторинга информационной безопасности для высших учебных заведений...	352
<i>Хамроев Шохбоз Султонмуродович</i>	



O'SMIRLAR AXLOQIY RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li
Qo'qon davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-3007-435X

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda o'smirlar axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinib, oilaviy muhit, ta'lim jarayoni, tengdoshlar guruhi va emotsional intellektning axloqiy qadriyatlar shakllanishidagi o'rni o'rganildi. Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatish va so'rovnomalar metodlaridan foydalanildi. Natijalar o'smirlarning axloqiy rivojlanishida oilaviy qo'llab-quvvatlash va emotsional intellekt darajasi muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, o'smirlik davri, emotsional intellekt, qadriyatlar, ijtimoiylashuv, psixologik omillar.

Abstract: This study analyzes the psychological factors influencing the moral development of adolescents, focusing on the role of family environment, educational processes, peer groups, and emotional intelligence in the formation of moral values. The research employed theoretical analysis, observation, and questionnaire methods. The findings indicate that family support and the level of emotional intelligence are significant determinants of adolescents' moral development. The study emphasizes the importance of a comprehensive psychological and pedagogical approach to fostering moral values and socially responsible behavior among adolescents.

Key words: moral education, adolescence, emotional intelligence, values, socialization, psychological factors.

Аннотация: В данном исследовании проанализированы психологические факторы, влияющие на нравственное развитие подростков, а также изучена роль семейной среды, образовательного процесса, группы сверстников и эмоционального интеллекта в формировании нравственных ценностей. В исследовании использовались методы теоретического анализа, наблюдения и анкетирования. Результаты показали, что семейная поддержка и уровень эмоционального интеллекта являются важными факторами нравственного развития подростков. Подчеркивается необходимость комплексного психолого-педагогического подхода к формированию нравственных ценностей и социально ответственного поведения у подростков.

Ключевые слова: нравственное воспитание, подростковый возраст, эмоциональный интеллект, ценности, социализация, психологические факторы.

KIRISH

Zamonaviy globallashuv sharoitida yosh avlodning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini ta'minlash dolzarb pedagogik va psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi o'smirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mustaqil fikrlovchi hamda yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida yoshlarning intellektual, ma'naviy va axloqiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish¹ ...davlatning muhim vazifalaridan biri ekanligi belgilangan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning asosiy maqsadi sifatida ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlovchi va yuksak axloqiy fazilatlariga ega shaxsni tarbiyalash² vazifasi ko'rsatib o'tilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrirdagi) – Toshkent, 2023.

² O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida³ yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik mas'uliyati va ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalar qatoriga kiritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'smirlik davri shaxs rivojlanishining eng murakkab va mas'uliyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Mazkur davrda shaxsning o'zini anglash jarayoni jadallashadi, mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Psixolog olim L.S. Vygotskiyning ta'kidlashicha, "o'smirlik davri shaxsning ichki dunyosi va ijtimoiy munosabatlar tizimi tubdan qayta quriladigan davrdir".⁴ Shu sababli aynan ushbu davrda axloqiy qarashlar, e'tiqodlar va qadriyatlar tizimining shakllanishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Axloqiy rivojlanish nazariyasining yirik vakillaridan biri L. Kolberg axloqiy ongning bosqichma-bosqich rivojlanishini asoslab bergan. Uning fikricha, o'smirlik davrida shaxs jamiyat tomonidan qabul qilingan me'yorlarni anglash va ularga ongli ravishda amal qilish bosqichiga o'tadi. Kolbergning ta'kidlashicha, "axloqiy rivojlanish insonning adolat va mas'uliyat haqidagi tasavvurlarining takomillashuvi bilan bog'liq jarayondir"⁵.

Mahalliy olimlardan E.G'. G'oziev o'smirlik davrini shaxsning ma'naviy va ijtimoiy kamolotida muhim bosqich sifatida tavsiflab, ushbu davrda axloqiy sifatlarning shakllanishida ijtimoiy muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini qayd etadi. Olimning fikriga ko'ra, "o'smir shaxsining shakllanishida oila, maktab va tengdoshlar jamoasi bir butun tarbiyaviy tizim sifatida namoyon bo'ladi"⁶.

Shuningdek, A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, axloqiy xulq-atvor kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash mexanizmlari orqali shakllanadi. Bandura "insonlarning aksariyat xulq-atvori boshqalarni kuzatish va ularga taqlid qilish orqali egallanadi", deb ta'kidlaydi⁷. Bu esa o'smirlar tarbiyasida ota-onalar, pedagoglar va tengdoshlarning shaxsiy namunasi alohida ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Yuqoridagi nazariy yondashuvlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar o'smirlarda axloqiy rivojlanishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyatini belgilaydi. Shu sababli mazkur tadqiqotning maqsadi o'smirlarda axloqiy rivojlanishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash hamda ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

1. O'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini tahlil qilish.
2. Axloqiy rivojlanishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash.
3. Emotsional intellekt va axloqiy xulq-atvor o'rtasidagi bog'liqlikni baholash.
4. Axloqiy tarbiyani takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Metodlar. Mazkur tadqiqot o'smirlarning axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash maqsadida Qo'qon shahridagi umumta'lim maktablarida tashkil etildi. Tadqiqotda 13–16 yosh oralig'idagi jami 120 nafar o'smir ishtirok etdi. Respondentlarning 58 nafari o'g'il bolalar va 62 nafari qiz bolalardan iborat bo'lib, ular turli ijtimoiy va oilaviy muhit vakillari hisoblanadi. Tadqiqot ishtirokchilarini tanlashda ularning yosh xususiyatlari, ta'lim oladigan muassasalari hamda tadqiqotda ixtiyoriy ishtirok etish istagi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqot kompleks yondashuv asosida tashkil etilib, nazariy va empirik metodlar uyg'unligidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini o'smirlik davri psixologiyasi, axloqiy rivojlanish nazariyalari hamda emotsional intellekt konsepsiyalariga oid ilmiy manbalar tashkil etdi. Jumladan, L.S. Vygotskiy, J. Piaget, L. Kolberg, A. Bandura, E.G'. G'oziev va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. **Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish metodi.** Mazkur metod orqali o'smirlar axloqiy rivojlanishining nazariy asoslari, axloqiy ong va qadriyatlar shakllanishining psixologik mexanizmlari o'rganildi. Shuningdek, so'nggi yillarda mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, muammoning o'rganilganlik darajasi aniqlandi.
2. **Kuzatish metodi.** O'smirlarning maktabdagi va sinfdan tashqari faoliyatdagi xulq-atvorini o'rganish maqsadida tizimli kuzatish olib borildi. Kuzatish jarayonida ularning tengdoshlari bilan munosabati, pedagoglar

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-son Farmoni. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi". 28.01.2022.

4 Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Prosvetsheniye, 2017.

5 Kohlberg L. Essays on Moral Development. Vol. II. – New York: Harper & Row, 1984.

6 G'oziev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2022.

7 Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.



bilan muloqoti, jamoaviy ishlardagi ishtiroki hamda axloqiy me'yorlarga rioya etish holatlari qayd etildi. Kuzatish natijalari maxsus kuzatuv kartalariga kiritildi va keyingi tahlil uchun umumlashtirildi.

3. **Anketa-so'rovnoma metodi.** Respondentlarning axloqiy qadriyatlarga munosabati, mas'uliyat hissi, empatiya darajasi va ijtimoiy muhit ta'sirini aniqlash maqsadida maxsus tuzilgan anketa-so'rovnoma qo'llanildi. Savolnoma ochiq va yopiq turdagi savollardan iborat bo'lib, ishtirokchilarning fikr va qarashlarini har tomonlama aniqlash imkonini berdi. Savollar o'smirlarning halollik, adolat, bag'rikenglik, insonparvarlik va mas'uliyat kabi axloqiy fazilatlariga bo'lgan munosabatini baholashga qaratildi.
4. **Suhbat metodi.** Tadqiqot davomida respondentlar bilan individual va guruhli suhbatlar o'tkazildi. Suhbatlar orqali o'smirlarning kundalik hayotda uchraydigan axloqiy vaziyatlarga munosabati, qaror qabul qilish xususiyatlari hamda axloqiy tanlovlarni amalga oshirish jarayonlari o'rganildi. Mazkur metod anketa natijalarini chuqurroq izohlash imkonini berdi.
5. **Psixologik diagnostika.** Respondentlarning emotsional intellekt darajasi, empatik qobiliyatlari va ijtimoiy moslashuv xususiyatlarini aniqlash maqsadida diagnostik savolnomalardan foydalanildi. Diagnostika natijalari asosida o'smirlarning emotsional rivojlanishi bilan axloqiy xulq-atvori o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi.
6. **Statistik tahlil.** Tadqiqot davomida olingan empirik ma'lumotlar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, foizli taqsimot, qiyosiy tahlil va umumlashtirish metodlari qo'llanildi. Har bir ko'rsatkich bo'yicha natijalar guruhlar kesimida taqqoslandi va ular asosida jadval hamda diagrammalar shakllantirildi. Statistik ishlov berish natijalari tadqiqotning ishonchligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda muammo yuzasidan ilmiy-nazariy manbalar o'rganildi va tadqiqot dasturi ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda empirik ma'lumotlar to'plandi hamda diagnostik tadbirlar o'tkazildi. Uchinchi bosqichda esa olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, tahlil qilindi va tegishli xulosalar ishlab chiqildi.

Mazkur metodologik yondashuv o'smirlarda axloqiy rivojlanishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni har tomonlama o'rganish hamda ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarning tahlili o'smirlarning axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik va ijtimoiy omillarni aniqlash imkonini berdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, axloqiy qadriyatlarning shakllanishi birgina omil bilan emas, balki oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar muhiti, emotsional intellekt hamda ommaviy axborot vositalarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi (1-jadval).

1-jadval: O'smirlarning axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar

Omil	Ta'sir darajasi (%)
Oila muhiti	34
Ta'lim muassasasi	25
Tengdoshlar guruhi	21
Emotsional intellekt	12
OAV va internet	8

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, oila muhiti eng yuqori ko'rsatkichni (34 %) egallagan. Bu holat oilaning o'smir shaxsining ma'naviy va axloqiy rivojlanishidagi yetakchi o'rinni tasdiqlaydi. Tadqiqotda ishtirok etgan o'smirlarning aksariyati orasida ota-onalar bilan ochiq va samimiy muloqot mavjud bo'lgan oilalarda ulg'aygan respondentlarda mas'uliyat, halollik va boshqalarga hurmat kabi axloqiy sifatlar yuqoriroq darajada rivojlanganligi kuzatildi. Aksincha, oilaviy nizolar ko'p uchraydigan yoki ota-onalarning tarbiyaviy nazorati sust bo'lgan holatlarda axloqiy me'yorlarga rioya qilish darajasi nisbatan pastligi kuzatildi.

Ta'lim muassasasi 25 foiz ko'rsatkich bilan ikkinchi o'rinni egalladi. Tadqiqot natijalari maktabdagi sog'lom psixologik muhit, o'qituvchilarning shaxsiy namunasi va tarbiyaviy ishlarning mazmuni o'smirlarning axloqiy qarashlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, jamoaviy loyihalar, ma'naviyat soatlari va tarbiyaviy tadbirlar faol tashkil etilgan sinflarda o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyat darajasi yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Tengdoshlar guruhi 21 foiz natija bilan uchinchi o'rinda qayd etildi. O'smirlar davrida tengdoshlarning fikri va bahosi muhim ahamiyat kasb etishi ma'lum. Tadqiqot davomida ijobiy ijtimoiy muhitga ega bo'lgan guruhlarda faoliyat yurituvchi o'smirlar orasida hamkorlik, o'zaro yordam va bag'rikenglik sifatleri kuchliroq rivojlanganligi kuzatildi. Shu bilan birga, salbiy guruh ta'siriga tushgan ayrim respondentlarda intizom buzilishlari va axloqiy me'yorlardan chekinish holatlari uchradi.

Emotsional intellekt omili 12 foizlik ulushni tashkil etdi. Biroq ushbu ko'rsatkichning nisbatan pastligi uning ahamiyati kamligini anglatmaydi. Aksincha, qo'shimcha tahlillar emotsional intellekt darajasi axloqiy xulq-atvor bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, emotsional intellekti yuqori bo'lgan o'smirlarning 78 foizi turli ijtimoiy vaziyatlarda mas'uliyatli va bag'rikeng xulq-atvorni namoyon etgan. Ular nizoli holatlarda muammoni tinch yo'l bilan hal qilishga, boshqalarning hissiyotlarini tushunishga va empatiya ko'rsatishga moyil bo'lganlar.

Ommaviy axborot vositalari va internetning ta'siri 8 foizni tashkil etdi. Mazkur natija internetning axloqiy rivojlanishga ta'siri cheklanganligini emas, balki boshqa omillar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishini ko'rsatadi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 82 foizi har kuni ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini bildirgan. Ularning bir qismi internet orqali foydali ma'lumotlar va ma'naviy-ma'rifiy materiallardan foydalanayotgan bo'lsa, ayrim hollarda zararli axborotlar va salbiy kontent bilan to'qnash kelish holatlari ham qayd etildi. Bu esa o'smirlarda media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Natijalarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, o'smirlarning axloqiy rivojlanishida eng katta ta'sir oilaga tegishli bo'lsa-da, maktab, tengdoshlar muhiti va emotsional intellekt ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur omillarning o'zaro uyg'unligi o'smir shaxsida ijobiy axloqiy sifatlarning shakllanishini ta'minlaydi.

Shu sababli axloqiy tarbiya jarayonini tashkil etishda oila, ta'lim muassasasi va psixologik xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Olingan natijalar L.S. Vygotskiy, I.S. Kon va zamonaviy rivojlanish psixologiyasi tadqiqotlari bilan mos keladi. Tadqiqot oilaning axloqiy tarbiyadagi yetakchi o'rni saqlanib qolayotganligini ko'rsatdi.

Shu bilan birga, internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri ham yildan yilga ortib borayotganligi kuzatildi. Bu esa o'smirlarda media savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Emotsional intellekt va axloqiy xulq-atvor o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiya aniqlangani o'smirlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarda psixologik treninglardan keng foydalanish lozimligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari o'smirlarda axloqiy rivojlanish biologik, psixologik va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri asosida shakllanishini ko'rsatdi. Oilaviy muhit, ta'lim muassasasi, tengdoshlar guruhi va emotsional intellekt axloqiy qadriyatlarining shakllanishida muhim determinantlar hisoblanadi.

Axloqiy tarbiyani takomillashtirish uchun:

- ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish;
- maktablarda axloqiy rivojlanish dasturlarini joriy etish;
- emotsional intellektni rivojlantiruvchi treninglarni tashkil etish;
- media savodxonlikni kuchaytirish;
- o'smirlarni ijtimoiy loyihalarga jalb qilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Berk L.E. Development Through the Lifespan. Boston: Pearson, 2023.
2. Santrock J.W. Adolescence. New York: McGraw-Hill, 2024.
3. Steinberg L. Adolescence. New York: McGraw-Hill, 2023.
4. UNICEF. Adolescent Development and Participation Report. New York, 2024.
5. WHO. Adolescent Mental Health and Development Framework. Geneva, 2023.
6. G'oziev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. Toshkent, 2022.
7. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.